

**HUQUQ FANLARINI O'QITISHDA DARSLIK VA QO'SHIMCHA
MANBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

S. A. Ermatova.

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

Ilmiy rahbar D. Xolnazarova.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd).

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy fanlarni o'qitishda darsliklar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa manbalardan foydalanishning ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yashash huquqi, o'lim jazosi, Konstitutsiya, oila, jinoyat, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, fuqaro, maxsus huquq, muayyan huquq.

Eng avvalo huquq fanlarini o'qitishda darsliklarning ahamiyati katta hisoblanadi, chunki har bir o'quvchining qo'lida darslik bo'lsa, uning dars tayyorlashi, mustaqil o'qishi uchun imkoniyat bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida har bir o'quvchining darslik bilan ta'minlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Darsliklardan tashqari kodekslar, qonunlar, prezident farmonlari, sud qarorlari ham huquqiy fanlarni o'qitishda asosiy manbalar qatoriga kiradi. Elektron manbalarga, yani internetda mavjud bo'lgan saytlarga lexs.uz, norma.uzlar ham huquqiy fanlarni o'qitishda muhim manbalar hisoblanadi. Eng asosiysi huquqiy fanlarni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'rni beqiyos, chunki huquq darsining ham, huquq tarmoqlarining ham, qonun-qoidalarning ham asosi-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Sababi hech bir normativ huquqiy hujjat asosiy qonunimizga zid bo'lmasligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasida qayd etilgan.

O'quvchilarga dars jarayonida moddalarning mohiyatini tushuntirish va anglatish muhim, chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimizning asosiy qonuni, yani oliy yuridik kuchga ega hujjatdir, hamda joriy qonunchilikning asosiy manbai va negizidir. Huquqiy darsliklarda Konstitutsiyadagi moddalardan kam ma'lumot keltirilgan. Shuning uchun darslarda aynan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan foydalangan holda dars o'tilsa o'quvchilar chuqurroq bilimga ega bo'ladilar. Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va hozirgi kungacha ko'plab o'zgartirishlar kiritilgan. Hozirgi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprelda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo'li orqali qabul qilingan.

Ushbu Konstitutsiya 6 bo'lim, 27 bob, 155 ta moddadan iborat.

Bu yangi Konstitutsiyaga juda ko‘p o‘zgartirishlar kiritildi hamda deyarli amaldagi normalar yana ham mustahkamlandi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: vijdon erkinligining kafolatlanishi, har kim xohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod e’tiqod qilmaslik huquqiga egaligi va diniy qarashlar majburan singdirilishiga yo‘l qo‘ylmasligi ta’kidlangan, yani bu moddada dunyoviy davlatning belgisi keltirilgan. Dunyoviy davlat-rasmiy davlat dini mavjud bo‘lmagan va birorta diniy ta’limot majburiy sanalmaydigan davlat hisoblanadi. Bu esa 1-moddada mustahkamlandi, yani 1-moddada: "O‘zbekiston-boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat", - ekanligi ta’kidlangan. Darsliklarda dunyoviy davlatning o‘ziga ta’rif berilsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa batafsil moddalarda ko‘rsatilgan. Konstitutsiyamizning 25-moddasiga ko‘ra: «Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd eng og‘ir jinoyatdir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi ta’qiqlanadi»[1]. Ushbu modda orqali o‘quvchilar shaxsiy huquqimiz bo‘lgan yashash huquqi Konstitutsiyamizda mustahkamlanganligini yana ham teranroq anglaydilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risidagi» 2005-yil 1-avgustdagи Farmoniga muvofiq, 2008-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasida jinoiy jazo sifatida o‘lim jazosi bekor qilingan. Uning muqobili sifatida umrbod qamoq jazosi yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi kiritilgan. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarga o‘lim jazosi bekor qilinganligini, kimlarga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin emasligini, jumladan, ya’ni ayollarga, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga, oltmisht yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanishi mumkin emas. O‘lim jazosining bekor qilinishi bo‘yicha o‘qituvchi o‘z fikr mulohazalarini ham ta’kidlab o‘tishi lozim. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosining bekor qilinishi to‘g‘risida har kimning shaxsiy fikri bor. Mening ham shaxsim fikrim: O‘lim jazosining bekor bo‘lishi yaxshi, chunki oddiy misol keltiradigan bo‘lsam, masalan: bir inson qotilligi uchun o‘lim jazosi, aytaylik otib o‘ldirilishga hukm qilinsa va otib o‘ldirilsa, shunda otib o‘ldirgan inson bilan qotilligi tufayli o‘lim jazosiga hukm qilingan jinoyatchi o‘rtasida farq yo‘qoladi. Ikkalasi ham qotil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir moddasining hayotimizda o‘z or‘ni bor. Unda jamiyat va davlat tuzilishini, davlat hokimiyyati, boshqaruv organlarini tuzish, ularning vakolatlarini, fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlarini belgilaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Undan tashqari qonunchilik, ijro organlari, O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi belgilanadi. Konstitutsiya-

jamiyat hayotining hamma sohalariga, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mehnat faoliyati, shaxsiy hayotiga ta'sir o'tkazadi. Masalan: Konstitutsiyamizning 46-moddasiga ko'ra «Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar, va boshqa turdag'i ijtimoiy yordamning miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas». [1] Bu moddani anglagan, tushungan insongina davlatimiz tomonidan fuqarolarning hayotiga ta'sir qilayotganini anglaydi. Konstitutsiyamizdagi moddalarning mazmunini tushuntirish ham o'qituvchiga bog'liq tomonlari ham bor. Huquqiy fanlarni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'rnini hech narsa bosa olmaydi, chunki u huquq tarmoqlarining asosiy manbayi hisoblanadi.

Huquqiy fanlarni o'qitishda Oila kodeksining muhim o'rnini bor. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan, hamda 1998-yil 1-sentyabrda kuchga kirgan. Aynan o'sha yili, yani 1998-yil mamlakatimizda «Oila yili», -deb e'lon qilingan. Jamiyatdagi har bir inson bir oilaning azosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76- moddasida ta'kidlanishicha: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi», -deyilgan. Shuning uchun oilaning jamiyatdagi huquqiy muhofazasi, ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashda oila kodeksining o'rnini katta hisoblanadi. Oila kodeksida nikoh tuzish tartibi, shartlari, er-xotinning shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlari, mol-mulkning shartnomaviy tartiblari va nikohning tugatilishi kabi boshqa normalar belgilangan. Oila kodeksi 8 ta bo'lim, 238 ta moddadan iborat.

Nikoh tuzish ixtiyoriy hisoblanganligi uchun nikoh tuzishga majbur qilish ta'qiqlanadi. Huquqiy fanlarni o'qitishda Oila kodeksidan foydalanishning eng ahamiyatlari tomoni shundaki, nikoh oilaning vujudga kelishida yagona asos bo'lgani uchun davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi, FHDYO dan nikohdan o'tish huquqiy asos hisoblanadi. Shuning uchun huquqiy fanlarni o'qitishda Oila kodeksidan foydalanish ham muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasi: Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuzilishi va diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. [2]. O'zbekiston Respublikasida nikoh yoshi yigitlarga ham, qizlarga ham 18 yosh hisoblanadi. Nikohdan o'tganda yani oila qurilganda shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Er-xotinning qanday shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlar borligini hamda yana boshqa qanday huquq va majburiyatları mavjudligini oila kodeksi orqali bilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining asosiy huquq tarmoqlaridan yana biri Jinoyat huquqidir. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentyabrdan qabul qilingan va 1995-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Jinoyat kodeksi 8 ta bo'lim, XXIV ta bob, 302 ta moddadan iborat hisoblanadi. Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratligi va ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilanishi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 2-moddasida qayd etilgan. Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga asoslanadi.

Oila kodeksi bilan Fuqarolik kodeksining bazi o'xshash jihatlari bor. Jinoyat kodeksi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ham bazi o'xshash tomonlari bor. Masalan: Jinoyat kodeksida ham Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham jarima jazosi mavjud. Undan tashqari Jinoyat kodeksida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi mavjud bo'lsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda esa maxsus huquqdan mahrum qilish jazosi mavjud. Bularning bir-biridan farqli tomonlari shundaki, Jinoyat kodeksining 45-moddasidagi muayyan huquqdan mahrum qilish jazosida: Shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yohud tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoki u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini ta'qiqlashdan iboratdir. Ana shunday mansab yoki faoliyatning turi sud tomonidan ayblov hukmida ko'rsatiladi.[5]. Maxsus huquqdan mahrum qilish esa, masalan transport vositasini boshqarish huquqidan yoki ov qilish huquqidan mahrum qilinishi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda berilgan. Bu kodekslardagi farqlarni anglash muhimdir. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabridagi Qonuni bilan tasdiqlangan. 1995-yil 1-apreldan joriy etilgan. Ma'muriy huquq ham huquq tizimining mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Bu huquq tarmog'i davlat boshqaruvini tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Qisqasi qoida va me'yorlarga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladigan javobgarliklardir.

Huquqiy fanlarda jazoning muqarrarligi aytildi. Huquqiy javobgarlikning maqsadi huquqbazarlikni oldini olish, insonni tarbiyalash, unga noqonuniy xattiharakatining xavfini anglashiga yordam berish hisoblanadi.

Huquqiy fanlarni o'qitishda Fuqarolik kodeksining ham alohida muhim o'rni bor. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi hamda 1996-yil 29-avgustdagi qonuni bilan tasdiqlangan. Ushbu kodeks 6 ta bo'lim, 71 ta bob va 1199 ta moddadan iborat. Shu paytga qadar bu kodeksga ham o'zgartarishlar kiritilgan. Fuqarolik kodeksi huquqning me'yorlari mulkiy va u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, yani sha'ni va qadr qimmatini himoya qilishni tartibga soladi. Fuqarolik kodeksi orqali qonun hujjatlaridagi huquqiy normalar qanday huquqiy ahamiyatga egaligini va huquqiy nizolar qanday hal qilinishini o'rganish mumkin. Huquqiy fanlarni o'qitishda Fuqarolik kodeksidan foydalanish juda keng qamrovli, chunki unda shaxsiy, meros, mulkiy, oilaviy huquqlar va boshqa huquqlar mavjud. Fuqarolik kodeksi boshqa huquq sohalari bilan bog'liq. Masalan: oila huquqi, mehnat huquqi, mulk, meros huquqi kabilar. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari-fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik huquqi subyektlari hisoblanadi. Fuqarolar yani jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lмагan shaxslar tushuniladi. Yuridik shaxs tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 39-moddasida quyidagicha ta'rif berilgan: O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lган hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.[3].

Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning maxsus tartibi faqat qonun yoki boshqa normativ hujjatlarda maxsus ko'rsatma bo'lган taqdirdagina qo'llanilishi mumkin. Himoya qilishning maxsus tartibi quyidagichadir: fuqarolik huquqlarini himoya qilish qonunlar bilan belgilangan hollarda va tartibda kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan ham amalga oshiriladi.[4].

Barcha ijtimoiy munosabatlar huquq sohalari bilan tartibga solinadi. Masalan: fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari hamda erkin kasb tanlash, mehnat qilish, saylash, saylanish, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlarimiz konstitutsiyaviy huquq bilan tartibga solinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin: huquqiy fanlarni o'qitishda huquqiy darsliklar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, va boshqa kodekslarning har birining alohida o'rni bor, chunki bir kodeksning o'rnini boshqa bir kodeks yoki bir moddaning o'rnini boshqa bir modda bosa olmaydi. Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi yoki boshqa kodeks yoki qonunlar bo'ladimi ahamiyati shundaki vaqt o'tishi bilan barcha kodekslari yangi talab va normalar asosida o'zgarib yangilanib boradi. Bu esa doimo o'rganishni talab etadi.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O'zbekiston» Toshkent-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. –Toshkent: «Adolat» 1998,
3. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси (Ўзбекистон Республикасининг 21.12.1995 й. 163-I-сон ва 29.08.1996 й. 256-I-сон Конунлари билан тасдиқланган).
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. Toshkent -Ilm ziyo-2006.
5. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят Кодекси (ЎзР 22.09.1994 й. 2012-XII-сон Конуни билан тасдиқланган).
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994.
7. <https://lexs.uz>.
8. <https://www.norma.uz>.